

O'ZBEK TILIDA NUTQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

G.R.Bozorova

bozorovagulruh77@gmail.com

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola nofilologik yo'nalishlarda davlat tili tadqiqi va ta'limi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarning o'zbek tilidan og'zaki va yozma savodxonligini oshirishga oid muammo va yechimlar yoritilgan.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросам исследования и образования государственного языка по нефилологическим направлениям, где освещены проблемы и пути решения, связанные с повышением устной и письменной грамотности будущих специалистов по узбекскому языку.

Annotation. This article is devoted to the study and education of the state language in neophilological directions, highlights the problems and solutions associated with improving the oral and written literacy of future specialists in the Uzbek language.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, yozma savodxonlik, ko'rsatmalilik prinsipi, maqsadli, metodologik, mazmunli, tashkiliy, mezonli va natijali komponentlar.

Ключевые слова: узбекский язык, письменная грамотность, принцип наглядности, целевая, методологическая, содержательная, организационная, критериальная и результативная составляющие.

Keywords: Uzbek language, written literacy, the principle of clarity, target, methodological, substantive, organizational, criteria and effective components.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: *“Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”, – degan fikrlari barchamizdan ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga bo'lgan mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimizni talab etadi. Chunki ona tilini chuqur bilish mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda erkin, qisqa, mantiqan izchil bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Ushbu maqsad va vazifalarning amaliy ifodasi sifatida 2019-yil 21-oktabrda “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-son [farmoni](#), 2020-yil 20-oktabrda “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6084-son [farmoni qabul qilindi. Mazkur me'yoriy](#)*

hujjatlarda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash asosiy maqsad qilib belgilangan. 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ustuvor vazifa sifatida belgilangan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish masalalari nafaqat filologik soha vakillariga, balki hayotimizning barcha jabhasida faoliyat yuritayotgan har bir fuqaroga tegishlidir.

Oliy ta'lim tizimida nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislariga o'zbek tilidan bilimlarini mustahkamlash hamda ularni turli nutqiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida “O'zbek tili”, “O'zbek tilining sohada qo'llanishi”, “Davlat tilida ish yuritish kabi” fanlar o'qitilib kelinmoqda. Ushbu fanlar zahirida lotin yozuviga asoslangan *o'zbek alifbosi, imlo qoidalari, davlat tilida ish yuritish va mutaxassisligiga oid terminlarni bilishning ilmiy-nazariy asoslari hamda ularni ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qo'llay olish, ta'lim jarayoniga tatbiq qilishning metodik imkoniyatlari yoritib berilgan. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarining o'zbek tilidan savodxonligi (og'zaki nutq savodxonligi, yozma nutq savodxonligi, o'qib tushunish texnikasi) talab darajasida emas va bugungi kunda ushbu jarayondagi ba'zi kamchliklarni bartaraf etish zarurati tug'ilmoqda. Jumladan:*

- talabalar auditoriyasini sohaga oid adabiyotlar bilan ta'minlash (“O'zbek tili“, O'zbek tilining sohada qo'llanishi“, “Davlat tilida ish yuritish“ fanlaridan);
- Barcha mutaxassisliklar bo'yicha sohaviy terminlarning mukammal imlo va izohli lug'atlarini yaratish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish;
- *mutaxassislikka doir adabiyotlarning filologik nuqtayi nazardan sifat darajasini oshirish;*
- *mustaqil ta'lim vazifalarini maqsadli yo'naltirish;*
- *talabalarining darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda o'zbek tili va adabiyot fanlari bilan integratsiyani amalga oshirish hamda talabalar qamrovi va moddiy-texnik ta'minotni yo'lga qo'yish;*
- *ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy saytlar tomonidan uzatilayotgan axborotlar matnidagi imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarga jiddiy e'tibor qaratish;*
- *o'zbek tilidan milliy sertifikatning manfaatdorlik darajasini oshirish.*

Shuningdek, soha mutaxassislarini tayyorlashda o'zbek tili fanini o'qitishni maqsadli yo'naltirish bo'yicha samarali usullardan foydalanish zarur. Buning uchun, avvalo, grammatik mavzularni tanlashda talabalarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda sohaga oid matnlardan foydalanish nazarda tutiladi. Fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar, uslubiy va o'quv qo'llanmalar hamda darsliklarni soha yo'nalishlari bo'yicha tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Sohaga oid matnlarni tanlash va shu asosida qator topshiriqlar ishlab chiqish talabalarda ham ona tiliga, ham sohaga oid bilimlarining oshishi va mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Mavzuga mos matnlarni tanlash talabaning sohasiga oid, o'zlashtirilishi murakkab mutaxassislik fanlari materiallari doirasida amalga oshirilsa, ona tili fani orqali sohasiga oid fanlar bilan bog'liq ma'lumotlarni o'qish va takrorlash imkoniyati yana-da ortadi. Tanlangan matn bir nechta topshiriqli bo'lsa, talaba har bir topshiriqni bajarish uchun berilgan matnni qayta-qayta o'qiydi va bu sohaga oid ma'lumotlarning esda qolishi va xotirada uzoq vaqt saqlanishi uchun yordam beradi. Natijada bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilim va ko'nikmalari o'zbek tili fanlari doirasida ham rivojlanib boradi. Ma'lumki, ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligini ta'minlash talab etiladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda esa mustaqil ta'lim topshiriqlaridan samarali foydalanish zarur. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'zaro bog'liq maqsadli, metodologik, mazmunli, tashkiliy, mezonli va natijali komponentlardan iborat mustaqil o'zlashtirish kompetentligini rivojlantirish asosida ishlab chiqish muhimdir. Bunda umumlashtirilgan takrorlashlar, talabalar uchun murakkabligi yuqori darajadagi topshiriqlardan cheklanish, erkin ijod, hayotiy tajribaga asoslanish kabi omillarga e'tibor qaratish lozim.

Olimlarning aniqlashicha, insondagi bilimlarning hosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha: ko'rish a'zosi orqali – 80-85%, eshitish a'zosi – 9-13%, hid bilish a'zosi orqali – 2,5-3,5%, teri sezgisi orqali – 1,5-3%, ta'm bilish a'zosi orqali – 1-2%, jami – 100%gacha. Turli sezgi organlari ishtirokida o'zlashtirilgan va qayta ishlangan axborotning oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlari eslab qolinadi: O'qilganlar – 10%, eshitilganlar – 20%, ko'rilganlar – 30%, ko'rilgan va eshitilganlar – 50%, gapirilganlar – 80%, gapirilgan va amalda bajarilganlar – 90%. Demak, ko'rish sezgisi orqali qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati yuqoriroq ekan. Bu esa o'z navbatida, o'qitish jarayonida ko'proq ko'rsatmalilik prinsipiga amal qilishimizni nazarda tutadi. Buyuk chex pedagogi Y.A. Komenskiy ko'rsatmalilikni o'qitishning „oltin qoidasi“, deya bejizga ta'kidlamagan. Bugungi axborot texnologiyalari asrida deyarli barcha tahsil oluvchilar ijtimoiy tarmoqlarda faoldir va bu jarayon ularning yozma savodxonligiga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazishi, shubhasiz. Ijtimoiy tarmoqlar tomonidan uzatilayotgan axborotlar matni filologik jihatdan olib qaralganda, xatolardan xoli emas. Ushbu xatoliklar ko'z xotirasi orqali ongimizda uzoq

vaqt saqlanib qoladi va imloviy va ishoraviy qoidalarning “eng to‘g‘risi“ sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun ham, ayniqsa, rasmiy saytlar tomonidan uzatilayotgan ma‘lumotlar matnini tahrir qilish jarayonida mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Ta'lim tizimida nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, yoshlarning lug‘at boyligini boyitish jarayoning boshqarish hisoblanadi. Til o‘qitish jarayonida talabalarda lug‘at bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning so‘z boyligini oshirishga, so‘zning mazmun-mohiyatini teran anglash, sohaga oid terminlarning imlosini o‘rganish va o‘zlashtirish, o‘qib tushunish texnikasini shakllantirishga xizmat qiladi. Buning uchun auditoriyani ehtiyoj darajasida ensiklopedik (qomusiy) va lisoniy (lingvistik) lug‘atlar bilan ta‘minlash talab etiladi. Yoshlarning lug‘at boyligi va og‘zaki nutqini o‘stirishning eng ishonchli va samarali manbalaridan yana biri badiiy asarlar hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulot darslarida hamda mustaqil ta‘lim topshiriqlarida fanning asosiy mavzulariga bog‘lagan holda badiiy asarlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Ta'lim oluvchilarga adabiy til me‘yorlarini singdirish masalasida e‘tibor ham yozma nutqqa, ham madaniy og‘zaki nutq malakalarini shakllantirishga qaratilishi, til ta‘limi jarayoni ta‘lim oluvchilarning kundalik hayotiy faoliyatlari, ehtiyojlaridan uzilib qolmasligi, talabalarda amaliy xarakterdagi nutqiy tinglab tushunish, [gapirish](#), o‘qish, yozish kompetensiyalarini shakllantirishni ta‘minlay olishi lozim. Shu o‘rinda, I.A. Karimovning quyidagi fikrlarini ta‘kidlab o‘tish joizdir: “O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni tushunish ham, oqlash ham qiyin“.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozorova, G. R. (2022). Effective ways to teach the life and creativity of Muhammad Yusuf in school literature education. *Международный журнал языка, образования, перевода*, 3(2).
2. Bozorova, G. R. (2023). Turfa zakovatlar” nazariyasi asosida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish. *Veterinariya sohasini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami*.
3. Bozorova, G. (2022). Maktab adabiy ta'limida Muhammad Yusuf Hayoti va ijodini o'rgatishning samarali yo'llari. *Til, Ta'lim, Tarjima*.
4. Bozorova, G. (2021). Milliy ruh-millat ko'zgusi. *Til ta'limining uzviyligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya*.

5. Abdurahobovna, K. Z. (2023). NEW TRENDS AND MODERN APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE TEACHING (TEACHING UZBEK LANGUAGE FOR RUSSIAN GROUPS). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 160-163.
6. BOZOROVA, G., & ESHNIYAZOVA, M. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODINI O 'RGANISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH. *LTEACHIN ANGUAGE*, 156.
7. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (5), 171-173.
8. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).
9. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.
10. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Ҳ. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021*, 1, 528.
11. Narziyeva, N. N. (2024). VETERINARIYA FANLARINI O 'QITISHDA O 'QITISH METODLARINI MUTAXASSISLIK FANLARIDAN DARS O 'TISHGA MOSLASHTIRISH. *Ustozlar uchun*, 57(2), 3-12.
12. Kurbanovna, S. D., Norkuzievna, N. N., & Rajabovna, S. O. (2024). HISTORICAL AND SPIRITUAL HERITAGE, AN IMPORTANT FACTOR OF THE FORMATION OF AESTHETIC CULTURE IN YOUTH. *PEDAGOGS*, 53(2), 45-55.
13. Kurbanovna, S. D., Norkuzievna, N. N., & Rajabovna, S. O. (2024). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF AESTHETIC CULTURE IN YOUTH. *PEDAGOGS*, 53(2), 37-44.
14. Rajabovna, S. O., Norkuzievna, N. N., & Kurbanovna, S. D. (2024). SOCIO-ECONOMIC CONDITION OF RURAL YOUTH AND WAYS TO IMPROVE IT. *PEDAGOGS*, 53(2), 56-63.
15. Norkuziyevna, N. N., Kurbanovna, S. D., & Rajabovna, S. O. (2024). VETERINARIYA TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING

INTEGRATIV YONDASHUVI HAMDA TADQIQOTCHILIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *PEDAGOGS*, 53(2), 78-87.

16. Rajabovna, S. O., Norkuziyevna, N. N., & Kurbanovna, S. D. (2024). YOSHLARNI TARBIYALASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'RNINI. *PEDAGOGS*, 53(2), 26-36.
17. Norkuziyevna, N. N., Kurbanovna, S. D., & Rajabovna, S. O. (2024). VETERINAR MUTAXASSISLARINI ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. *PEDAGOGS*, 53(2), 64-77.